

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT
INSTITUTI**

«LIBOSLAR DIZAYNI» KAFEDRASI

MUSAYEVA MALIKA

**Qo'l kashtasi yordamida ayollar oqshom liboslari dizayn loyihasini ishlab
chiqish**

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi

Ilmiy rahbar:

Kafedra mudiri Vohidova U. A.

«___» _____ 2014 y.

TOSHKENT 2014

Mundarija

Kirish

1. Loyiha oldi qismi

- 1.1. Kolleksiya konsepsiyasini ishlab chiqish.
- 1.2. Ayollar liboslari bo'yicha istiqbolli moda yo'nalishi tavsifi.
- 1.3. Marketing tadqiqotlar.
- 1.4. Ayollar liboslar to'plamiga qo'yiladigan talablar.
- 1.5. Ijodiy manbaani tanlash, asoslash va uslublash.

2. Loyiha qismi

- 2.1. Eskiz loyihalash
 - 2.1.1. Kolleksiyaning kompozitsion yechimi va koloristik qatorini tanlash.
 - 2.1.2. Yakunlovchi eskizlarni yaratish va modellarni texnik tavsifini ishlab chiqish.
 - 2.1.3. Texnik eskizlarni yaratish.
- 2.2. Kolleksiyaning loyihalash usulini tanlash va asoslash.
- 2.3. Konstruktor - texnologik qism.
 - 2.3.1. Kolleksiya uchun materiallar paketini konfeksiyalash.
 - 2.3.2. Konstruktsiyalash usulini tanlash va asoslash.
 - 2.3.3. Buyum asosiy detallar chizmalarini qurish uchun dastlabki ma'lumotlar.
 - 2.3.4. AK va BK hisobi va qurish
 - 2.3.5. AK va BK konstruktiv - dekorativ modelashtirish
 - 2.3.6. Ishchi hujjatlarni ishlab chiqish.
 - 2.3.6.1. Yangi modellar andozalarini tayyorlash tamoyillari tavsifi.
 - 2.3.6.2. Andozalar joylashmasi.
 - 2.3.7 Texnologik ishlov berish xususiyatlari.
- 2.4. Kolleksiya reklama loyihasini ishlab chiqish.
 - 2.4.1. Nom tanlash (Brand-name).
 - 2.4.2. Kolleksiya reklama loyihasini ishlab chiqish.

3. Ekologik qism

Xulosa

Ilova

Adabiyotlar ro'yxati

KIRISH

Kirish

Respublikamizda dizayn sanoat mahsulotlari bozordagi mavqeini, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal etish, mahsulot raqobatdoshligini oshirish kabi masalalar bugungi kunnig dolzarb masalalaridan biridir. Korxonalar ishlab chiqarish maqsadlarini amalga oshirish, yangi tovarlar ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarish resurslari – ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchidan samarali foydalanish zarurdir. Lekin taraqqiyotning barcha bosqichlarida iqtisodiyotning doimiy va bosh muammosi ehtiyojlarining cheksizligi va iqtisodiy resurslarning cheklanganligi bo'lib kelgan. Mana shunday sharoitda kishilarning yashashi, kamol toppish uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berish g'oyat ma'suliyatli vazifadir. [1]

O'zbekistonda xalqni yuqori sifatli, turli assortimentdagi mavsumbop bichimli, estetik ko'rinishi jihatidan aholi talablariga mos keladigan kiyimlar bilan ta'minlash, jahon bozorlarida raqobatbardosh bo'lgan sifatli mahsulot ishlab chiqarishdir.

O'zbekiston Respublikasi o'zining mustaqil taraqqiyot yo'liga asoslangan holda bozor iqtisodiyotiga to'la ishonch bilan o'tib bormoqda. Bugungi kunda rivojlanishning yo'liga o'tish, ilm – fan yutuqlarini ishlab chiqarishda samarali qo'llash, yangi texnologiyalardan keng foydalanishgina iqtisodiy o'sishning jadalligini, davlatlarning jahon hamjamiyatidagi raqobatbardoshligini, ularning iqtisodiy havfsizligi hamda jahon iqtisodiyotiga teng huquqli integratsiyalashuvi darajasini belgilab beradi. [1]

Iqtisodiy sohada olib borilayotgan islohatlarning pirovard maqsadi – iqtisodiyotni erkinlashtirish orqali aholida erkin va farovon hayotni ta'minlashdan iboratdir. Amalga oshirilayotgan islohatlar ichida yengil sanoat ham o'z o'rniga ega. Chunki, Respublikamiz sanoat ishlab chiqarishda yengil sanoat tarmog'i yetakchi o'rinlardan birini egallaydi.

Dizayn sanoat mahsulotlari va xalq iste'mol mollarining sifatini oshiruvchi kuchli vosita ekanligi tan olinmoqda, turli dizaynerlik tashkilotlari tashkil topmoqda. Respublikamizda dizayn sohasini rivojlanishida qilinadigan ishlarimizning ko'lami nihoyatda keng.

Zamonaviy badiiy jarayonda "prêt-a-porte" va "yuksak moda" xamisha o'ziga chorlovchi serjilo xususiyatiga ega. U allaqachon sanoatning amaliy ijrosi chegarasidan chiqib, yorqin, o'ziga xos g'aroyib tantanaga aylangan. Uning namoyishi bizni xayratga soladi, o'ylantiradi, xayajonlantiradi, olingan har qanday tasurot samarasi – yanada chorlovchi diqqat e'tiborini qamrab oluvchi tomoshadir. Madaniyat dunyosi ramzlar, belgilar va ishoralar dunyosidir. Inson libosni tabiatdagi nobop ta'sirlardan saqlanish vositasi sifatida idrok eta boshlaganidan buyon u insonning badiiy shakllar kashf etish, o'zida qadimiy amaliy va estetik didni mujassamlashtirish buyumlarni yaratish qobiliyatning ramzi bo'lib qoldi.

Mavzuni dolzarbliqi. Respublika dizaynerlari yaratgan liboslarida milliy naqsh keng qo'llanadi. Sharqqa xos klassika, milliy kashtachilik va faqat tabiiy matolardan osiyocha ekzotika zamonaviy talqinda aks etmoqda. Stiyl.uz modalar haftaligida o'z kolleksiyalarini namoyish etayotgan dizaynerlar yildan yilga ko'payib, milliylik ruhimiz oshib bormoqda. Buni hozirda ommanining kundalik kiyinish uslubiga ham ta'sir qilmoqda. Yosh dizayner o'z ishlarini ko'rsatish uchun hozirda turli hil namoyishlar o'tkazilmoqda. Bular, "Bolajonlar – shirintoylar", "Asrlar sadosi", "Xon atlas" va albatta "Stiyl.uz" moda haftaliklari. Yil davomida o'tkazib kelinayotgan bu namoyishlarga yana "Bazar Art" milliy ko'rgazmamizni ham qo'shishimiz mumkin. Bu ko'rgazmada O'zbekistonning butun amaliy san'at turlarida mehnat qiladigan hunarmandlar o'z ishlarini namoyish etadilar. Dizaynerlar shu ko'rgazmada o'ziga ilhom parisini topishi ham mumkin. O'z kolleksiyalarida amaliy san'at turlarini ijodiy manbaa sifatida qo'llab, yangi milliylik ruhi talqin etilgan to'plam yaratilishiga shu ko'rgazma ham sabab bo'ladi.

Bu diplom loyihada ham milliy amaliy san'at turi ya'ni yog'och o'ymakorlik san'ati bilan ilhomlanib, yangi milliylik ruhi talqin etilgan to'plamning dizayn va texnologik qismi ishlab chiqilgan. Bu loyihada o'zbek milliyligi bilan zamonaviylik

ruhi uyg'unlashga holda ayollar uchun nafis "yuksak moda" yo'nalishi bo'yicha libos yaratildi. Loyihadan maqsad ayollarni tashqi go'zalligidan tortib ichki go'zalligigacha, ayollarni ko'rish mumkin bo'lgan bor go'zallikni shu to'plamda namoyish etish.

Bitiruv malaka ishining maqsadi: Qo'l kashtasi yordamida ayollar oqshom liboslari loyihasini ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

- Kolleksiya konsepsiyasini ishlab chiqish;
- Ayollar liboslari to'plamini istiqbolli moda yo'nalishini tahlil etish;
- Marketing tadqiqotlarini olib boorish;
- Ayollar liboslari to'plamiga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish;
- Ijodiy manbani tanlash va asoslash;
- Kolleksiyaning kompozision yechimini va koloristik qatorini ishlab chiqish;
- Kolleksiyaning loyihalash usulini tanlash;
- Kolleksiya reklama loyihasini ishlab chiqish;

LOYIHA OLDI

QISMI

chiqish

Konseptuallik - bu loyiha madaniyatining mohiyatini asoslaydigan umumiy ijodiy ko'rsatmadir. Ijodiy konsepsiya loyihaning qiymati va ma'naviy mazmunini belgilaydi. Ijodiy konsepsiyaning mazmuni va xarakteri nafaqat muallifni shaxsiy dunyoqarashi bilan balki loyiha madaniyati va jamiyatini rivojlanish asosiy raqobatlari bilan bog'liq. Dizayn insonlarning ehtiyojini hisobga olishi zarur va ular muamolarini yechishda o'z hissasini kiritish lozim. [12]

Kostyum dizaynida mavjud konsepsiyalar odatda o'z davr va dizaynining asosiy muammolarni oqimidadir va turmush tarzini o'zgarish umumiy raqobatlari bilan bog'lanishidadir. Ya'ni buyumning funksiyasiga dizaynerlar o'zgacha qarashadi, garderobini ta'minlash turli konsepsiyalarni tarafdorlari bo'ladi, har xil shakllantirish usullarini qo'llashadi, turli turmush tarzda yashayotgan insonlarga o'z kiyimlarini taklif etadi.

Bitiruv malaka ishida qo'l kashtasi yordamida ayollar oqshom liboslarini dizayn loyihasini ishlab chiqish jarayonida ayollar o'zlarini oqshom liboslarida yengillikni, nafislikni his qilishlari va shuningdek milliylik ruhida qolishlari maqsad qilib olindi.


Ushbu liboslar to'plamini amalda yaratish maqsadida o'zbek amaliy san'at turlaridan biri bo'lmish yog'och o'ymakorlikdagi naqshlar qo'l kashtasi yordamida mahorat bilan tikilishiga e'tibor berildi.

Yog'och o'ymakorlik – amaliy san'atning tarixiy kelib chiqishi insoniyatning bolalik davriga borib taqaladi. Bashariyat ulg'ayib borgan sari amaliy san'at ham yuksala bordi. Yashash uchun kurash mavjud ekan, yaxshi yashash uchun ehtiyoj kuchayib borishi jarayonida qo'l mehnatidan aqliy mehnat ajralib chiqib boshladi. Ov qurollari, uy – ro'zg'or buyumlariga bo'lgan ehtiyoj kuchayib bordi. Avvalo tosh o'ymakorligi, suyak o'ymakorligi, keyinchalik esa yog'och o'ymakorligi ham sekin – astalik bilan o'z rivojini topdi.[22]

Samoniylar davrida amaliy bezak san'ati, ayniqsa kulolchilik, shishasozlik va yog'och o'ymakorligi, rivojlandi. Monumental me'morchilikka katta e'tibor

beriladi, turar joylar, hunarmandchilik ustaxonalarida, saroylar, ma'muriy binolar, savdo rastalari, hammomlar, madrasalar quriladi. Qurilishda asosan pishiq g'ishtdan foydalaniladi, ba'zan bino devori ham g'ishtdan, tomi – gumbaz pishiq g'ishtdan foydalanildi, ba'zan bino devori ham g'ishtdan, tomi-gumbaz pishiq g'ishtdan ishlandi. Binolar ko'rkam va chidamli bo'lishiga e'tibor qaratildi, bor ilm va kuchlarini safarbar etdi. Samoniylar maqbarasi planidan tortib, hajmiy tuzilishigacha geometrik tartib va prinsip asosida yaratilganligi aniqlanadi. Maqbara memoriy geometriya va matematikadan chuqur xabardor bo'lganligi shubhasizdir, aks holda, u bunchalik go'zallik meyorini topalmasdi. Ehtimol tasodif dersiz. Yo'q tarix taqozosi bu algebra faniga asos solib, logarifm, algoritm so'zlariga nomi yo'g'rilgan Muhammad Xorazmiy (787-850) me'morchilikka ta'sir ko'rsatgan mutafakkir olim Abu Nasr Farobiy (870-950) amaliy geometriya sohasidagi risolalari me'morlar uchun qo'llanma vazifasini o'tagan. Koinot bo'yicha tekshirish olib borgan, astronomiya, geometriya va trigometriyaga oid risolalar muallifi Abu Rayhon Beruniyning me'morchilikka xissa qo'shgani shubhasizdir. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, arxitektura bilan bog'liq amaliy matematika va geometriya doimo me'morlar e'tiborida bo'lgan. VII-VIII asrlarning boshlariga kelib ko'shk, qo'rg'onlar, shaharlarga ibodatxonalar va saroylar qurildi. Bu davrda yog'och va ganch o'ymakorligi yanada rivoj topdi, devoriy rasmlar rang – barang bo'lishiga e'tibor qaratiladi, buni Afrosiyob, Varaxsha va Yumaloq tepa singari madaniy yodgorliklarimiz misolida ham ko'rishimiz mumkin. Bu kabi san'at asarlari, so'g'diylar madaniyati bizga, o'sha davrlarda jumhuriyatimiz hududida yashagan xalqlar qo'shni xalqlar bilan savdo-sotiq olib borgan, bu esa bizga qo'shni xalqlar bilan ham madaniy aloqada bo'lgan deyish imkonini beradi. Arablar VII-VIII asrlarda ibodatxonalarni, tasviriy san'at asarlarini yo'q qilib tashladilar. Natijada sal kam bir asr tushkunlik hukm surdi. Arablar O'rta Osiyoni zab etkunlari qadar mahalliy xalq ma'budalari topilgan. Har bir xonadonning jamoada tutgan o'rni va boyligiga qarab, o'z ma'budasi bo'lgan. Odatda bu ma'buda eshik tepasiga qo'yilgan. Xonodon sohibi mavridi bilan yog'ochdan o'yilgan yangi ma'budani xarid qilib, almashtirib turgan. Bunday

jarayon yog'och o'ymakorligi san'ati qadimiy bo'lganligidan dalolat beradi. Arablar istilosi oqibatida tasviriy san'atning ko'p turlari qatori yog'och haykallar ishlash ham butkul barham topdi. Biroq Islom dini bu san'atni tag-tugi bilan yo'qota olmadi. Yog'och tarashlovchi usta naqqoshlar o'z san'atini yog'ochda, dov-daraxtlar aksini ifodalash, oddiy chiziqlardan murakkab geometrik shakllar yasashda namoyish etdilar. Ustalarning san'ati otadan-bolaga, avloddan-avlodga meros bo'lib o'taveradi. Islom dini kirib kelgan ilk davrlarda qabir ustiga yodgorlik qo'yish man qilingan, bu kabi qonunlarga omvoiy va abbosiylar ilk hukumronligi davrida rioya qilingan. Ammo, keyinchalik arablar jumhuriyatimiz hududida dastlab masjidlar, qurdirdilar, qadimiy ibodatxonalarni masjidlariga aylantirdilar. Bunga misol qilib Buxoroning Moh bozoridagi ibodatxonani olib ko'rishimiz mumkin. Nihoyat arxitektura va amaliy bezak san'atida, xunarmandchilikning turli sohalarida jonlanish boshlandi. 862 yilda Almantasir va Fotiddin so'ng ruxoniylar fatvosi bilan "Amir al-ma'man"ga atab maqbara bunyod qilindi. So'ng Sharqning Islom tarqalgan boshqa mamlakatlarida ham shu kabi yodgorliklarni qurdirish rasm bo'ldi. IX-X asrlarda qurilgan, Buxorodagi Samoniylar maqbarasi ham shular jumlasidandir. Bu maqbara O'rta Sharqdagi eng qadimiy maqbaralardan birinchi bo'lsa, ikkinchisi esa biz yuqorida qayd qilib o'tgan Samarqand tog'larida joylashgan Tim qishlog'idagi turli naqsh-nigorlar bilan bezab ishlangan "Arab ota" – "Arab al-ma'man" maqbarasidir. 1960 yil boshlariga kelib shoir va jo'g'rofiya olimi Farg'ona pedagogika institutining professori Nikolay Lionov tomonidan kashf qilingan bu maqbaraning peshtog'iga bitilgan naqshinkor arabiy bitiklardan naqshinkor arabiy bitiklardan ma'lum bo'lishicha, bu maqbara xijriy 367, melodiy 977 yillarga tegishliligi aniqlandi. Islom dini tirik mavjudodlarni tasvirlashni qat'iy ma'n etgani tufayli tasviriy san'at rivojiga imkon beradi, faqat amaliy bezak san'ati rivoj topdi. Odam sur'atlarini islimiy naqshlar egalladi. Hozirga kelib ham shu naqshlar saqlanib qolgan. Milliy qalampir, bodom, anor naqshlari hozirgi kunda o'tmishimizdan eng go'zal yodgorlik bo'lib qolgan. (1-rasm)



1-rasm. Islimiy naqsh.

Islimiy naqshlar bir – biriga ulangan bo'lib, o'sish, yuksalish degan ma'nolarni bildiradi. Bu naqshlarda kichiklikdan kattaga intilish tasvirlangan bo'lib, go'dakni ulg'ayishi, kamol topishi ma'no qilib bitilgan. Aylana naqshlar esa bir xalqni bir – biriga bo'lgan iliqligi, uzilmas naqshlarda esa oqibati tasvirlangan.

1.2 Ayollar liboslari bo'yicha istiqbolli moda yo'nalishi tavsifi

2014 – yilda romantika uslubida ishlovchi dizaynerlarni ishi oldingidan juda o'zgacha bo'lib, unda ayollarni nozikligini shu qadar go'zal tasvirlashgan. Bu go'zallikni mashhur dizaynerlar ishlarida ko'rshimiz mumkin. Masalan, bular Elia Saab, Ziyad Nakad, Giambattista Valli va Nina Ricci. Bu dizaynerlar ishlarida biser, qimmatbaho toshlar, nafis gullar va vishifkalar shu qadar mohirlik bilan ishlanganki u liboslardan ko'z uzib bo'lmaydi.[26]

Giambattista Vallining 2014 – yildagi to'plamida romantika uslubining “yuksak moda” yo'nalishini ko'rishimiz mumkin(2-rasm). Uning liboslaridagi nafis gullarni shunchalik mahorat bilan joylashtirganki, libosga o'zgacha ko'rinish va bahor nafasini olib kelgandek bo'ldi. Valli o'z to'plamida ochiq ranglardan foydalangan. Masalan, och pushti, oq, havo rang, och shaftoli rang va qaymoq rang. Bezaklariga yorqinroq ranglardan foydalangan. Masalan, qizil, siyohrang va to'q qizil.



2-rasm. Giambattista Valli

Elia Saabning 2014 – yildagi to'plamida ham shunga o'xshash manzarani ko'rishimiz mumkin (3-rasm). Lekin uning albatta o'z yonalishi va uslubi bor. Uning liboslarida doim ayollarni go'zalligini ko'rishimiz mumkin. Elia Saabning bu to'plamida kundalik kiyimlar bilan birga oqshom ko'ylaklariniyam ko'rishimiz mumkin. Bu to'plamida dizayner qo'lda tayyorlangan gipyurda mahorat bilan ishlagan. To'plamida asosan barcha ranglar ishlatgan. Ular, oq, qora, ko'k, yashil, qizil, sariq, siyohrang.



3-rasm. Elia Saab

Ziad Nakadning 2014 yildagi kolleksiyasida ham romantika uslubining “yuksak moda” o'nalishini ko'rishimiz mumkin(4-rasm). Dizayner oqshom liboslariga biser, qimmatbaho tosh va matolar bilan ishlov bergan. Uning kolleksiyasida har xil tUSDagi ranglardan foydalangan. Ziad o'z kolleksiyasida ayollar qomatini har xil Burma va tahlamalar bilan ochib bera olgan.



4-rasm. Ziad Nakad

2014-2015 yildagi bashang liboslar ko'rgazmalari turli hil davlatlarda o'tkazildi. Bo'lib o'tgan ko'rgazmalarda ayollarni noziklik bilan namoyish eta olishgan. Romantika uslubida ishlayotgan barcha dizaynerlarning to'plamlarini silueta lari bir xildir.

1.3 Marketing tadqiqotlar (o'xshash modellar tahlili).

Marketing tadqiqotlari deganda marketing faoliyatining turli jihatlari bo'yicha ma'lumotlarni sistemali yig'ish, tartibga solish va tahlil qilish tushuniladi. Marketing tadqiqotlari marketologlarni axborotlar orqali bozor, is'temolchilar, raqobatchilar va marketing tashqi muhitning boshqa elementlari bilan bog'lovchi funktsiya hisoblanadi. Ayniqsa, bozor munosabatlari tobora chuqurlashib borayotgan bugungi kunda har bir korxona uchun marketing tadqiqotlari o'kazishning ahamiyati beqiyosdir, chunki marketing tadqiqotlariga asoslanib, korxonalar mahsulotlariga bo'lgan talabni va bu mahsulotlarning raqobatdoshligini qanday ekanligi haqida ma'lumotlar oladilar. [12]

Marketing tadqiqotlari korxona faoliyati haqidagi noaniqliklarni kamaytirishga yordam berib, korxonaning samarali faoliyati haqidagi noaniqliklarni kamaytirishga yordam berib, korxonaning samarali faoliyatini ta'minlaydi.

2014-yildagi bozorni tahlil qilganda shu ma'lum bo'ldiki, bu yil oddiylikka qiziqish qaytdi. Kundalik kiyimdan tortib boshqar kiyimlarga iste'molchi ochiq, yengil ranglarga talab bildirishmoqda. Ayniqsa boshqar liboslarda odiylik, hech qanday boshqar toshlari, marvaridlarsiz koktelniy liboslarga talab ko'payibdi. Bularni barchasidan ko'rinib turibdiki odamlar yana odiylikka, nafis go'zallikka intilishmoqda.

Toshkentdagi "Lasposa" to'y va oqshom liboslari salonida bu kabi ko'rinishdagi liboslarni ko'rishimiz mumkin. U yerda Elia Saab, Dior va boshqar brendlarning ishlarini ko'rishimiz mumkin. Libos narxlari yuqori tabaqa iste'molchilarga mo'ljallangan bo'lib, oddiy odamlarga mo'ljallanmagan.

1.4 Ayollar liboslari to'plamiga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish.

Iste'molchi tomonidan oqshom liboslariga qo'yilgan talablar.

Loyihalanayotgan buyumga qo'yiladigan talablar:

Kiyimni sifatini baholash uchun iste'molga oid sifat ko'rsatkichlari va texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarga bo'linadi.

Iste'molga oid ko'rsatkichlar deb, insonning buyumni iste'mol qilish jarayonidagi muayyan talablarni qondirishga qaratilgan buyum xossalari tushuniladi. Iste'molga oid ko'rsatkichlarga ijtimoiy, funksional, estetik, ergonomik, eksplutatsion ko'rsatkichlar kiradi.[11]

1. Ergonomik talab jumlasiga buyumni ekspatsiya qilish davrida inson uchun qulay sharoit yaratuvchi, uni toliqtirmaydigan sharoit tug'diruvchi faktorlar kiradi.
2. Estetik talab jumlasiga model konstruksiyasining badiiy butunligi, mukammaligi va zamonaviy moda talabiga javob berishi hamda haridorligi kiradi. Estetik xususiyatga ega bo'magan kiyim foydasiz buyumga aylanadi, chunki u o'z maqsadi funksiyasini – insonning estetik talabini qondiradigan o'ziga xos xususiyatini bajara olmaydi.
3. Funksional talab da model aniq bir vazifaga mo'ljallangan, iste'molchining antropometrik o'lchamlari guruhiga mos bo'lishi kerak. Ayni buyumning vazifasi modelga, uning konstruksiyasiga va materiallariga qo'yiladigan talablarni shakllantira oladi.
4. Eksplutatsion talab buyumni foydalanishga yaroqli holini uzoq muddat davomida saqlay olish qobiliyati. Bunda model o'z shaklini saqlovchanligi, materialning mustahkamligi, biriktiruvchi choklarning uzilishiga chidamliligi kabi talablarga javob berishi kerak.
5. Ijtimoiy talab buyumning ishlab chiqish va sotishga muvofiqligini bildiradigan ommaviy ehtiyojlarga mosligini harakterlaydi. Mahsulot sifatini ta'minlashda ijtimoiy omillar roli ilmiy – texnik taraqqiyot va moddiy farovonlik o'sgan sari oshaveradi.

Korxona tomonidan libos ommaviy qo'llanadigan buyum sifatida texnika – iqtisodiy talablar

Texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlar konstruksiyaning texnik jihatdan mukammallik darajisini, ishlab chiqarishga iste'molchi harajatlarini hisobga olgan holda kiyimni loyihalash va texnologik usullarini bildiraradi. Texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlarda standartlash va unifikatsiyalash, konstruksiyasining ishlov berishga qulaylik darajisini va tejamlilik ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

Ayollar libosini yaratayotganda uning texnologik jihatdan ishlov berishga qulayligi hamda choklarning pishiqligini taminlovchi va qayta ishlov berishga qulaylik yaratishda ekspluatatsion ko'rsatkichlarni ham hisobga olish zarur.

Konstruksiyaning standartlashtirish va unifikatsiyalashtirishga model seriyasining ishlov berishga qulaylik jihatdan yaqinliligi, model seriyasining konstruktiv jihatdan yaqinliligi ko'rsatkichlar kiradi.

Konstruksiyaning ishlov berishga qulayligiga ekspluatatsiya jihatidan ishlov berishga qulayligi, ishlab chiqarish jarayonida ishlov berishga qulayligi ko'rsatkichlari kiradi.

Tejamkorlik ko'rsatkichlariga bir dona maxsulotga sarf xarajatlar darajasi hamda buyum ekspluatatsiyasiga sarf harajatlar kiradi. Loyihalanayotgan buyumning tejamkorlik talablarga javob berishini taminlash maqsadida ko'p mayda detallarga ega bo'lgani model loyihalanganligi qo'l keladi. Chunki avra gazlamasidan chiqadigan chiqitlar kamroq bo'lib, andozalarni to'shamaga joylashtirish qulaylik tug'diradi.

1.5 Ijodiy manbaani tanlash, asoslash va uslublash.

Dizayner kostyum kolleksiyasini yaratishda ijodiy manbaa sifatida har qanday tabiiy hodisalar, buyum muhitining turli elementlari, dunyoda sodir bo'layotgan voqealar, musiqa, rang tasvir, adabiyot, balet, teatr, sirk, kino, tomosha tadbirlari, etnik mavzular, me'morchilik, muhandislik inshootlari, mashina detallari, turli mexanizmlar, maishiy buyumlar, amaliy san'at asarlari (shisha, tosh, yog'och, metall, keramika va b.), musiqa asboblari, yer fakturasi, yulduzli osmon, origami o'yini, ekologiya, tarixiy, xalq va klassik kostyumlar, eklektika usuli, parodiya usuli, stilizatsiyalash usuli va h.k. dan foydalanish mumkin.

Har bir dizayner o'z faoliyatining muayyan bosqichida tarixiy va xalq an'analari bilan ilhomlanib, ijodiy manbaalarga murojat qiladi. [4]

Ushbu oqshom liboslar to'plamida yog'och o'ymakorlik naqshi – “oltin kesma” kompozitsion naqshi ijodiy manbaa qilib olindi.

Oltin kesma – insonning o'z hayotida boshqa shakllarga nisbatan to'g'ri to'rtburchak shakliga ko'proq moyilligi borligi ma'lum. Uning uy-joydan tortib kitob-daftari, xontaxtasi-yu, televizorlari, hayotida ishlatiladigan juda ko'p buyumlarida shu shakl keng o'rin egallaganini ko'ramiz. Bu narsa bejiz emas. Inson ko'rish qobiliyatining ba'zi bir fiziologik xususiyatlariga ko'ra, ikkala ko'zning ko'rish maydoni elips shaklida bo'ladi. Bu elipslar ichiga to'g'ri to'rtburchak shakli mos tushadi. Demak, inson (intuitiv) ichki sezgisi, asosida o'zini o'rab turgan shu mutanosiblikda ko'radi.

Oltin kesim qonuni tushunchasini fanga eramizdan avvalgi XI asrda yashab o'tgan grek faylasufi va matematigi Pifagor olib kirgan. U o'z navbatida, bu qonunni qadimgi Misr, Vavilon ustunlari ishlarida qo'llagan. Eramizdan avvalgi 2590-2568 yillarda qurilgan va dunyodagi eng mashhur, muhtasham maqbara nomini olgan qadimgi Misr Gizadagi Xeops piramidasi ham oltin kesim qonuniga asoslanib qurilgan. Xeops piramidasi nisbatlari, Tutanxamon fir'avni maqbarasidan topilgan barelyeflar, ro'zg'or buyumlari, taqinchoqlardan ma'lum bo'lishicha, ularni yasashda ustalar shu qonundan foydalanishgan. Eramizdan avvalgi 427-347

yillarda yashab o'tgan Platon ham bu qonun haqida yaxshi bilgan. Grekiyadagi Parfenon ehromi balandligining uzunligiga nisbati 0,618 qismini tashkil qiladi. Ehromning boshqa unsurlari, qismlari, bo'laklari oltin kesim qonuniga asosan shu nisbat o'lchamlarida qurilgan. U erda arxeologik qazilmalar olib borilganida qadimgi me'morlar va haykaltaroshlar ishlatgan oltin kesim qonuni o'lchamlarida yasalgan sirkulni topishgan.

SHuningdek, o'tgan buyuk grek olimlari Evklid, Gipsikl e.a. II asrda, Papp e.a. III asrda bu qonun ustida juda ko'p izlanishlar olib borishgan.


Evropada o'rta asrlarda bu qonunni arab tilidan tarjima qilib o'rganishgan va bu ma'lumotlarni sir saqlashgan. Ayrim olimlarga bu qonundan foydalanishgan.

Uyg'onish davrida oltin kesim qonuniga qiziqish juda kuchayib ketdi. Bu qonun geometriya, san'at va ayniqsa, me'morchilikda keng qo'llanilgan. Buyuk rassom, olim, injener Leonardo da Vinchi va Luka Pacholi ismli rohib bu borada katta izlanishlar olib borishadi. Pero Dela Franchesko o'zining "Rang tasvirdagi perspektiva" nomli asari bilan chizma geometriya faniga asos soldi.

SHu davrda Germaniyada Albrect Dyurer odam gavdasining nisbatlari oltin kesim qonuniga to'g'ri kelishini isbotladi.[22]

XVI asrning buyuk astronom olimi Logan Kepler oltin kesim qonunini geometriyaning xazinasini dedi.

XIX asr o'rtalarida, 1855 yilda nemis professori Tseyzing bu qonunni tabiat hodisalari va san'at uchun absolyut universal nisbat deb atadi.(5-rasm)



5-rasm. Oltin kesim

Usta yangi kompozitsiyani chizishda o'z ichki sezgisiga (intuitsiyasiga), ko'p yillik tajribasi va tabiatni kuzatish asosida olgan bilimlariga, undagi qonuniyatlarga

asoslanib ijod qiladi. Ustaning ijod namunalari tahlil qilinsa, unda qandaydir qonuniyat borligini ko'rsa bo'ladi. O'zining jozibasi bilan ajralib turgan naqshdagi bu qonuniyat Oltin kesim qonuniga mos kelishini ko'rish mumkin.

Naqshning to'ri, gullari, barglari va novdalari, ularning bir-biriga nisbatan, ya'ni kompozitsiyadagi mutanosibligi shu qonuniyatga asoslanib chizilgan. Bunday naqsh tomoshabinga ma'qul tushadi.

Tanlangan texnika. Kashtachilik – o'zbek xalqining yuksak badiiy didga ega ekanligini ko'rsatuvchi omil hisoblanib, unda o'lkamizning go'zal tabiati o'z aksini topgan. O'zbek xalqining kashtachiligida kashtaning badiiy ta'sirchanligi uning chokiga qarab belgilanib, keng tarqalgan bosma, yo'rma choklarida bo'yoq mavjlanib ko'zga tashlanadi. [23]

Ayollar oshom libosini dizayn loyihasini ishlab chiqishda kashtachilikning yo'rma chok turidan foydalanildi.

O'zbek milliy kashtado'zlik xalq hunarmandchilik san'atining eng qadimiy turlaridan bo'lib, u xalqning o'z turmushini go'zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashta kiyimlar va buyumlarni bezashda hamda ro'zg'or bezak buyumlari tayyorlashda qadimdan qo'llaniladi.

Kashtachiligimiz san'ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. O'zbek chevar ustalari qo'llari bilan tikilgan kirpich, so'zana, zardevor, gulko'rpa, choyshab kabilar Fransiya, Italiya, Yaponiya, Germaniya, Belgiya, Amerika, Hindiston kabi xorijiy, shuningdek Respublikamizning Farg'ona vodiysida faqat xonadonlarda emas, balki amaliy san'at muzeylarida ko'p namunalari to'planib, doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan.

Hozirgacha buyumlar o'ziga xos go'zallik, nafis bezaklarning rang-barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega, buni arxeologik topilmalar va yozma manbalar isbotlab bermoqda. O'zbek kashtachiligi iqlimi, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda barcha kasb-hunarlar bilan birgalikda rivoj topgan. XIV - XV asrlarga mansub miniatyuralar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko'rish mumkin. Ispan elchisi Rui Ganzalem de Klavixo Amir Temur saroyida o'zbek milliy kashta

bezaklarini ko'rganini kundaligida yozib qoldirgan. Kamoliddin Behzod "Zafarnoma"ga ishlagan.

"Temur taxtda" miniatyurasida chodirga ishlangan kashtani ham aks ettirgan. O'zbek kashtachiligi qo'shni xalqlar kashtachiligi ta'sirida boyidi va rivojlandi. O'zbek kashtalariga e'tibor bersak, unda hind, xitoy, rus, qozoq, qirg'iz va tojik kashtachiliklarining usullarini uchratamiz. Kashtachilik san'atida har bir millatning o'ziga xos eng ko'p qo'llaydigan naqshlari bo'ladi. O'zbek kashtalarida o'simliksimon, geometrik shakl hamda gul naqshlari ko'p qo'llaniladi. [13]

LOYIHA QISMI

2.1.1. Kolleksiyanı kompazitsion yechimi va koloristik qatorni tanlash.

Rang buyumning eng muhim informatsion sifatlaridan biri hisoblanadi. Bizni o'rab olgan tashqi muhit – rangli olam tabiatda rangsiz mavjudot, o'simlik, buyum yo'q. Odam yaratgan asarlari orasida ham rangsiz buyumlar yo'q.

Rang orqali biz mahsulot haqidagi ma'lumotga ega bo'lamiz. Uning rangi og'ir va yengilligiga qarab model yoki buyum haqidagi tasavvurga ega bo'lamiz. To'q ranglarni og'ir, och ranglarni esa yengil tasavvur etamiz. Rangni fizik xossalarning ta'siri ko'rimlilik va salobatlilik taasurotini beradi. Ko'pgina tadqiqot o'tkazgan olimlarning asarlarida rang – bu qandaydir kuch deb atalganligi, odamning ruhiga salbiy yoki ijobiy ta'sir etishi mumkin. Ranglar odamlarning turli his-tuyg'ularini uyg'otadi.

Liboslar to'plamini yaratishda ranglar gammasining to'g'ri tanlanganligi uning eng muhim jihatlaridan biridir.

Qo'l kashtachiligi yordamida yaratilgan ayollar oqshom liboslar to'plami beshta ko'ylaklardan iborat. Ko'ylak romantika uslubida bo'lib, ularning ranglari sokin, nafis bo'lgan oq, havorang, siyohrang, yashil va jigarrang, undagi yo'rma chok bezaklari ham libos rangiga mos sokin och va tabiiy ranglardir, oq, pushti, tilla, bronza, yashil va boshqa ranglar libosni yanada ko'rkamlashtirish uchun ishlatilgan.

1.

Asosiy model tavsifi.

Ayollar oqshom libosi: ko'ylak va nimchadan iborat.

Mahsus joylarga mo'ljallangan krep atlas hamda arganza matoli o'rta yoshli ayollar oqshom libosi.

Libos yopishgan siluetli, ko'yak uzunligi uzun, nimcha uzunligi beldan 15 sm uzun, taqilmasi ko'ylak orqa o'rta chizig'ida bo'ksagacha osma izma.

Ko'ylak korset bichimli bo'lib, tepasi ochiq, tizza qismidan etakkacha har bir kilini kengaytilgan. Ko'ylak orqa qismi o'rta chizig'dan va ikki yon relefidan iborat.

Nimcha lif va baska qismidan iborat. Lif yelka qirqim, old o'rta qirqim, yon qirqim va bel vitochkasidan iborat. Lif ort qismi orqa o'rta chizig'I va bel vitochkalaridan iborat. Baska qismi quyosh bichimda bichilib, old o'rta qismi qirqimli.

Nimcha qismini old qisimlari qo'l kashtasi bilan bazatilingan.

Libosni 84-92 razmerlar va 160-175 bo'ylarga mo'ljallab tayyorlash tavsiya etiladi.

2. Modelga tavsif.

Bu libos o'rta yoshdagi ayollar uchun mo'ljallangan mahsus joylarga kiyiladigan bashang oqshom libosidir. Libos ikki qavatdan iborat. Asosiy qismi yelkasi ochiq korset bichimli uzun libos bo'lib, etagi 6 klinli qilib bichilgan. Matosi tabiiy ipakdan qilingan krep atlasdir.

Ustki yengil qismi o'zidan chiqqan yengli keng bichim bo'lib, etagi bel chizig'iga kiritilgan. Ustki qismi yengil shifon matosidan qilingan bo'lib, bu qismi milliy qo'l kashtachiligi bilan bezak berilgan. Qo'l kashtasi tabiiy ipak tolasidan qilingan bo'lib, tolaning och ranglaridan foydalanilgan.

Old qismi bel qismi bilan alohida bichilgan bo'lib, barcha bo'laklarga qotirma yopishtirilgan. Ort qismi izma va bog'lardan iborat. Ustki qismi old bo'lagi yaxlit bo'lib, asos qismini bel chizig'iga qo'shib burma orqali tikiladi.

Ort bo'lagi ham yaxlit. Faqatgina o'rta qismi qirqilgan va maxsus ishlov berilgan. Uning ham etak qismi bel chizig'iga kiritilgan. Libosning ichki qismi maxsus astarli mato bilan ishlov berilgan. Bu libosni bo'ylari 160 dan uzun ayollarga tavsiya etiladi.

3.

Modelga tavsif.

Bu libos o'rta yoshdagi ayollar uchun mo'ljallangan mahsus joylarga kiyiladigan bashang oqshom libosidir. Libos ikki qavatdan iborat. Asosiy matosi tabiiy ipakdan qilingan krep atlasdir. Libos ustiga yengil shifon matosidan yana bir qavat tushirilgan.

Asosiy qisim yelkasi ochiq ko'krak ostigacha bo'lib, maxsus qotirma bilan mustahkamlangan. Etak qismi yarim quyosh simon qilib bichilgan.

Libos ustidagi yengil shifon qavat asosiy qisimning yuqori qismiga mayda burmalar terilib tikilgan. Etak qismi esa quyosh simon qilib bichilgan va libosning yuqori qismiga burma terib tikilgan.

Libosning yengil qavati ham o'zbek milliy qo'l kashtachiligi bilan bezatilingan. Naqshlarni tabiiy ipak tolasining kamalak jilosidagi tabiiy bo'yoqlarga bo'yalgan ipdan foydalanilgan. Libosdagi naqshlar milliy hunarmandchiligimiz bo'lgan yog'och o'ymakorligining naqshlaridan olingan.

Libosning ort bo'lakning yuqori qismi izma va bog'lardan foydalanib birlashtirilgan. Bu libos 160 sms dan baland ayollar uchun mo'ljallangan.

4. Modelga tavsif

Bu libos o'rta yoshdagi ayollar uchun mo'ljallangan mahsus joylarga kiyiladigan bashang oqshom libosidir. Libos ikki qavatdan iborat. Asosiy matosi tabiiy ipakdan qilingan krep atlasdir. Libos ustiga yengil shifon matosidan yana bir qavat tushirilgan.

Asosiy qisim yelkasi ochiq bel nuqtasigacha bo'lib, maxsus qotirma bilan mustahkamlangan. Etak qismi yarim quyosh simon qilib bichilgan.

Libos ustidagi yengil shifon qavat asosiy qisimning yuqori qismiga mayda burmalar terilib tikilgan.

Libosning yengil qavati ham o'zbek milliy qo'l kashtachiligi bilan bezatilingan. Naqshlarni tabiiy ipak tolasining kamalak jilosidagi tabiiy bo'yoqlarga bo'yalgan ipdan foydalanilgan. Libosdagi naqshlar milliy hunarmandchiligimiz bo'lgan yog'och o'ymakorligining naqshlaridan olingan.

Libosning ort bo'lakning yuqori qismi izma va bog'lardan foydalanib birlashtirilgan. Bu libos 160 sms dan baland ayollar uchun mo'ljallangan.

5. Modelga tavsif.

Bu libos o'rta yoshdagi ayollar uchun mo'ljallangan mahsus joylarga kiyiladigan bashang oqshom libosidir. Libos ikki qavatdan iborat. Asosiy matosi tabiiy ipakdan qilingan krep atlasdir. Libos ustiga yengil shifon matosidan yana bir qavat tushirilgan.

Asosiy qisim yelkasi ochiq bel nuqtasigacha bo'lib, maxsus qotirma bilan mustahkamlangan. Etak qismi yarim quyosh simon qilib bichilgan.

Libos ustidagi yengil shifon qavat asosiy qisimning yuqori qismiga mayda burmalar terilib tikilgan.

Libosning yengil qavati ham o'zbek milliy qo'l kashtachiligi bilan bezatilingan. Naqshlarni tabiiy ipak tolasining kamalak jilosidagi tabiiy bo'yoqlarga bo'yalgan ipdan foydalanilgan. Libosdagi naqshlar milliy hunarmandchiligimiz bo'lgan yog'och o'ymakorligining naqshlaridan olingan.

Libosning ort bo'lakning yuqori qismi izma va bog'lardan foydalanib birlashtirilgan. Bu libos 160 sms dan baland ayollar uchun mo'ljallangan.

2.2 Kolleksiyaning loyihalash usulini tanlash va asoslash.

Loyiha vazifalarni eng optimal variantini qidirish jarayonida dizayner modellash va maketlash usullarni qo'llaydi.

Dizaynda modellash – bu bir butun ob'yektni yoki ob'yektlar tizimining vaziyatini yoki funksional jarayonini aks etish, tasavvur etish yoki ta'riflab berish jarayonidir. Badiiy siymo, loyiha grafik, retrospektiv, konstruktiv, prespektiv, texnikaviy va kompyuter modellash usullari mavjud.[12]

Loyiha – grafik modellash loyiha g'oyasini yaratishda va aks etishda yordam beradi. Loyiha – grafik – modellash quyidagilarni ko'zlaydi: grafik shaklini loyiha vazifasining ma'nosiga moslaydi; eskiz loyihani variant qidiruv va tajriba harakati; qo'yilgan vazifani yechish uchun loyiha qidiruvini mantiqiy ketma – ket va tizimli yondashish. Mavjud loyiha g'oyalarni, texnologiyalarni, korxonalarning iqtisodiy, badiiy madaniyat yutuqlarini (me'morchilik, rangtasvir, haykaltaroshlik) inobatga olib, dizayner avval o'z tasavvurida kelajak buyumning eskizini va dastlabki grafik tasvirini yaratadi (qidiruv eskiz, for-eskiz). Yangi yechimlarni qidirish va variantlarni tanlanish qog'ozda qilinadi. Keyin buyumning tashqi ko'rinishini ta'rifi va amaliy foydalanish qoidasi aniqlanadi. Natijada loyihalananayotgan buyumning badiiy-uslubiy va rangli-fakturaviy yechimi (eskiz loyiha) va konstruksiyasi, modelning proportsiyasi va silueti to'g'risida to'liq ma'lumot beriladi.

Dizaynda eng keng qo'llanadigan usul – retrospektiv modellash, ya'ni timsol va model o'xshashlarni tahlilga asoslangan va ushbu tahlilni asosida yangi loyiha vazifasini tashkil etish. Ammo, bu usul dizaynning asosiy vazifasini bajarishga imkon bermaydi – yangi buyumlarni yaratish emas, balki mavjudlarni takomillashtirishdir.[12]

Dizaynda boshqa modellashtirish usul – konstruktiv modellashdir – bu buyumning funksiyasini va morfologiyasini (morfologiya – buyumni funksiyalariga moslashgan) material shaklini o'zgartirish. Konstruktiv modellash quyidagicha bo'lishi mumkin: korrektiv – buyumning funksiyasi va shakl takomillashtiriladi; o'timli – buyumga yangi xossalarni berish uchun funksiyani

va morfologiya qaytadan tushunib yetiladi (masalan, kiyim dizaynida dekonstruksiya usuli); proeksion – buyumni funksiyasi va shakli qaytadan yaratiladi (kiyim yapon dizayneri I.Myake ijodi).

Dizaynda eng inovatsion usul deb perspektiv modellash yoki loyihaviy prognozlash hisoblanadi, u jamiyatning perspektiv rivojini o'rganish bilan shug'ullanadi va shu timsoliga yetishga imkon beradigan loyihani yaratadi.

Bu bajarilayotgan loyihada kostyumni loyihalash usullari ishlatiladi. Kostyumni loyihalash usullari ketma-ketlik bilan bajariladi. Birinchi bo'lib loyiha – grafik – modellash usuli ishlatiladi. Bunda eskiz qismini qidiruvu bajarilib, asosan milliy amaliy san'atga yuzlanadi. Yog'och o'ymakorlik san'atini me'morchilikda, buyumlarda ishlatilishi ko'rib chiqilib, uning naqshlarini libosga qo'yish g'oyasi ustida ishlaniladi. Va bunga bir qancha for – eskizlar yaratiladi.

Keyingi usulimizga o'tish bu retrospektiv modellashdir. Bu loyiha usulida izlangan for eskizlarga mukammallik kiritish uchun o'xshash modellar ko'rib chiqiladi. Bunda jahon modasiga yani mashxur dizaynerlar ishiga yuzlanadi. Ulardagi matolar, libos siluetlari ko'rib chiqiladi va mos bo'lsa qo'llaniladi.

Uchinchi usul bu konstruktiv modellashdir. Bu usulda deyarli tayyor eskizni konstruksiyasi ko'rib chiqiladi. Ya'ni chizilgan eskizning konstruksiyasiga tanlangan mato yoki tanlangan matoga konstruksiya to'g'ri keladimi yoki yo'q aniqlanadi. Kiyimni funksiyasini va morfologiyasini ham ko'rib chiqadi. Kerak bo'lsa shu loyiha usuli sababli kiyimni funksiyasi va shakli qaytadan yaratiladi.

Va oxirgi tanlangan loyiha usuli bu – prespektiv modellash bo'lib, bu ishlangan loyihani jamiyatga to'g'ri keladimi yoki yo'q, iste'molchi talabiga mosmi, o'zbek mentalitetiga to'g'ri keladimi aniqlaydi. Prespektiv modellash usulida kiyimni shu talablarga mos qilib yaratadi. Ayollarga milliy yog'och o'ymakorligi amaliy san'ati naqshlaridan bashang oqshom libosini yaratish uchun kostyum loyihalashning shu usullari tanlandi.

2.3.1. Kolleksiya uchun materiallar paketini konfeksiyalash.

Bu loyihaning asosi ayollar liboslari bo'lganligi sababli nafis va nozik uchuvchan matolar tanlandi. Bashang libislariga tanlangan matolar yorqin, yengil va albatta mayin bo'lishi kerak. Model eskizini ko'rib chiqqan holda bu oqshom liboslarga krep atlas va shifon matosi to'g'ri kelishi ko'rib chiqildi. Shifon- matosi frantsuz tilidan olingan bo'lib "chiffon" mato parchasi degan manoni anglatadi. Bu mato yupqa, ipakli, paxtali matolar qatoriga kiradi. Shifon matosining eni 150-140 sm bo'ladi. Bu mato juda tasirchan, nozik sanaladi. Shifon matosining bir necha turi mavjud. Bular ikki tomonli shifon, vishifkali shifon, sidirg'ali va gulli shifonlarga bo'linadi. Shifon matosining o'ngi va teskari tomonlari bir-biridan bir muncha farq qiladi. O'ng tomoni to'qroq, teskari tomoni ochroq bo'lib, qarama-qarshi joylashganligi uchun ular turlicha tovlanadi. (6-rasm)



6-rasm. Shifon

Shifon matolaridan odatda bashing oqshom liboslari tikiladi. Shifon matosi ip matosiga mansub bo'lganligi bilan ham ajralib tirade. Ipak tolasi ipak qurtidan olingan bo'lib, tolasi jihatidan yupqa, yaltiroq, egiluvchan va baquvat. Ipak matolar yegil, uchuvchan, o'z tusiga ega, namlikni tez o'ziga shimib oladi va tez quriydigan mato xisiblanadi.

Shifon gazlamalar assortimenti. Tolalarni tarkibi, tuzilishi, pardoatlanishi jihatidan shifoni gazlamalar turlicha bo'ladi. Savdo preskuranti bo'yicha shifon

gazlamalar 8 ta guruhga bo'linadi. Har bir guruh 6 ta kichik guruhdan iborat, shifon gazlamalar artikulini birinchi raqami guruh nomerini, ya'ni gazlamaning tuzilishi va nimaga ishlatilishini bildiradi. Shifon gazlamalar assortimenti 5 ta raqamli artikuldan iborat. Demak, ipakdan to'qilgan barcha gazlamalarda artikulning birinchi raqami 1, boshqa tolalar qo'shilgan sun'iy ipaklardan to'qilgan gazlamalarda 2, sun'iy ipaklardan to'qilgan gazlamalarda 3, boshqa tolalar qo'shilgan sun'iy ipaklardan to'qilgan gazlamalarda 4, sintetik iplardan to'qilgan gazlamalarda 6ta raqam bilan belgilanadi.

Tabiiy shifon gazlamalar sidirg'a yoki gul bosilgan tarzda ishlab chiqariladi. Shifon gazlamalar odatda polotno o'rilishda to'qiladi.

Matolarning mexanik xossalari. Matoning mexanik xossalariga pishiqligi, uzayishi, ishqalanishga chidamliligi, g'ijimlanuvchanligi, qattiqligi va boshqa xossalar kiradi.

Matoning fizik xossalari. Matoning fizik xossalariga gigroskopikligi, havo o'tqazuvchanligi, bug' o'tqazuvchanligi, suv o'tkazmasligi, xo'llanuvchanligi, chang oluvchanligi, elektrlanuvchanligi va boshqa xossalari kiradi. Fizik xossalariga qo'yiladigan talablar gazlamalarning vazifasi bilan belgilanadi va ularning tola tarkibi, tuzilishi va pardozi bog'liq bo'ladi.

Matoning gigienik xossalari. Ipak gazlamalarining gigienik xossalariga uning inson salomatligi uchun xavfsiz va zararsiz ekanligini ta'minlaydi. Shunga ko'ra ipak gazlamalar o'zida gigroskopiklik, havo o'tkazuvchanlik va xalqaro standartlar (ISO, ASTM), Respublikamizdagi mavjud standart metodikalari tomonidan baholandi.

Gazlama xossalariga tolaning uzunligi, qalinligi, ularning mustahkamligi, mayinligi va pishiqligi kabi omillar ta'sir ko'rsatadi.

Krep atlas tabiiy mato hisoblanib, asosan bashang liboslarda ishlatiladi. Krep atlas matosidan turli hil shakllar chiqarilsai qo'l keladi. Krep atlas matosi ham tabiiy va suniy matolar turkumiga mansub.

2.1-jadval

Ko'rsatkichlari	Mato			
	Krep-shifon	Krep-jorjet	Krepdeshin	Pribor
Mato tarkibi, %	Tabiiy ipak, shelk, 100%	Tabiiy ipak, 100%	Tabiiy ipak, 100%	
To'qilishi	polotno	polotno	polotno	
Matoning chiziqli zichligi	KrSHS 1,56X2(643/2) KrSHS 1,56X2(643/2)	KrSHS 2,33x4(429/4) KrSHS 2,33X2(429/2)	NSHS 3,23X3(3/31) KrSHS 2,33X5(429/)	
Yuza zichligi g/m ²	38,5	72,9	73,6	
Mato zichligi	430 400	450 290	480 310	
Uzilishi	411,161	523,62	544,12	STATIM AT C
Cho'zilishi	28,0841	32,0213	34,102	STATIM AT C
Yorug'likka chidamliligi	6-7	6-7	6-7	Fade Meter
Havo o'tkazuvchaanligi, dm ³ /m ² ·sek	407,0	324,2	49.6	Perm. Tester

2.3.2. Konstruktsiyalash usulini tanlash va asoslash.

Unifrend Aldrich- moda industriyasida yuqori malakali kadrlarni o'ziga jalb etuvchi ingliz metodikasi hisoblanadi. Liboslarni konstruktsiyalash- bu jarayon hisoblanib, uning asosiy obyekti "qomat-kiyim" sistemasidir. Qomat bo'yicha ma'lumotning, o'lcham beyelgilarining, qomat tuzilishining o'ziga xos xususiyatlarining qanchalik to'liqligiga qarab chizmalarning sifati belgilanadi. Velikobritaniyada 20 ta o'lcham belgilarini YEMKO SEVning 32 ta o'lcham belgilari va 14 ta tekshiruv belgilari bilan qiyoslash uchun ishlatiladi. Shu sababli ko'pgina konstruktiv parametrlar hisoblanmaydi va ayollar tipaviy qomatiga mos tekshirilgan o'xshashliklar orqali amalga oshiriladi.

Konstruktiv nuqtalarning belgilanish sistemasi va noldan boshlab o'sib boruvchi raqamlarning ishlatilish asosiga binoan andozani qurish sxemasining mohiyati bo'yicha har bir nuqtaning joylashish ketma-ketligini aniqlash mumkin. Konstruktorlik modyellashtirishning barcha usullari rasimga olingan bo'lib, modellarning texnik rasmlari va konstruktorlik o'lchamlar asosida bajarilgan andozalar sxemasi ko'rsatib o'tilgan.

Ingliz metodikasi tipaviy va notipaviy qomatlarga chizmalarni tayyorlash jarayonida paydo bo'luvchi qiyinchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha tavsiyalardan iborat. Shuningdek, dyetal chizmalarini balansini va mos kelishini tekshirish bo'yicha noyob metodika keltirilgan bo'lib, ular orqali maket matosidan tayyorlangan birinchi namunaning bichilish o'lchamlarining to'g'rililigini tekshirish va qomat ustida tekshirib ko'rish mumkin jarayonlarini amalga oshirish mumkin.

Unifrend Aldrich ingliz metodikasi modellashtirishning va konstruktsiyalashning noyob usullarini yaratishda dizayner g'oyasini rivojlanishiga imkon byeradi.

Tipoviy figuraning o'lchamlari

2.2. – jadval

№	Nomlanishi	Shartli belgi	O'lcham, sm
1	2	3	4
	Bo'y	P	176
1.	Ko'krak aylanasi uchinchisi	OГ3	84
2.	Bel aylanasi	OГ	66
3.	Buksa aylanasi	OБ	90
4.	Orqa kengligi	IIIc	33,4
5.	Kukrak kengligi	IIIГ	31,2
6.	Yelka kengligi qiyamasi	IIIп.ок	12
7.	Bo'yin aylanasi	Oш	36
8.	Ko'krak vitachkasining oralig'i	Pнв	6.4
9.	Bitseps aylanasi	Oбиц	27
10.	Bilak aylanasi	Oзап	15.5
11.	To'pik aylanasi	Oщ	23.5
12.	Oyoq to'pig'ini tepasini aylanasi	Oн.щ	20.5
13.	Ort bel chizig'igacha uzunlik	Дтс	40.5
14.	Old bel chizig'igacha uzunlik	Дтп2	40.5
15.	Ort o'miz balandligi	Впрз	20.5
16.	Bel chizig'idan tirsakacha uzunlik	Дтк	58
17.	Bel chizig'idan bo'ksagacha uzunlik	Дтб	20.3
18.	Bel chizig'i balandligi	Влт	103
19.	Bel nuqtasidan o'tirg'ich chizig'igacha masofa	Дсид	27.3
20.	Qo'lning bilak to'pig'igacha	Др. зап	58

	uzunligi		
21.	Qo'l uzunligi	Друк	52

AK qurish uchun qo'shimchalar

2.3. – jadval

№	Qo'shimchaning nomlanishi	Shartli byelgi	O'lcham Qo'shimcha, sm
1	Ko'krak aylanasi qo'shimcha	П r3	5
2	Orqa o'mizi balandligini qo'shimcha	ПВПp3	0,5
3	Yelka kengligiga qo'shimcha	Пшсп	0,5

Asos konstruktsiya chizmasing hisobi (176-84-92)

2.4. - jadval

№	Konstruktsiya qismi	Hisob-kitob formulasi	O'lcham, sm
1	2	3	4
1.	0-1		1,5
2.	1-2	Впрз+0,5	21
3.	2-3	0,5Ог3+5	47
4.	3-4	/0-2/	
5.	1-5	Дтс	40,5
6.	5-7	Дтб	20,3
7.	7-8	0,5Об	45
8.	0-9	1/5Ош-0,2	7
9.	1-10	1/5Впрз-0,7	3,4
10.	9-11	Шп+1	13
11.	12	0,5Шп	6,5
12.	12-13		
13.	2-14	0,5Шс+0,5	17,2
14.	14-16	0,5/14-15/	8,6
15.	17	/2-17/-/17-14/	
Old			
16.	4-20	1/5Ош-0,2	7
17.	4-21	1/5Ош-0,7	6,5
18.	3,22	0,5Шг+0,5Рнв	18,8
19.	3-23	/3-23/= /23-22/	
20.	23-26		2,5
21.	20-27	Рнв	
22.	11-28		1,5
23.	27-30	Шп	12
24.	22-31	1/3/3-21/	

25.	32	0,5/14-22/	5,5
-----	----	------------	-----

2.3.5. AK va BK ni konstruktiv-dekorativ modellashtirish.

Ayollar oqshom liboslari asos konstruksiyasida lif qismlari korsetga mos qilib modellashtirilgan. Ko'ylak 6 klinli qilinib, etagiga kengayib ketilgan. Bel, bo'ksa qismlari toraytirilgan.

Nimcha qismi old o'mizi belgacha ochilingan va bir – birida o'tadi. Yeng o'mizi kengroq qilib o'yilgan. Nimcha baskasi quyoshsimon qilib bichilingan.

Andozalardagi chok haqlari

2.5.-jadval

№	Chok haqi nomi va qiymati, sm						Izoh
	Detal va qirqimlar nomi	Biriktirma chok (mm)	Magiz chok	Buklash qayilishiga	Qirqishga	Kirishtirish va ishlov berishga	
1	2	3	4	5	6	7	8
1	Old bo'lak						
	Yelka qirqim	10			0,1	0,1	
	Yon qirqim	10			0,1	0,1	
	Etak qirqim			0.5	0,1	0,1	
2	Ort bo'lak						
	Yelka qirqim	10			0,1	0,1	
	Etak qirqim			0.5	0,1	0,1	
	Yon qirqim	10			0,1	0,1	
3	Old bo'lak astari						
	Yelka qirqim	10			0,1	0,1	
	Yon qirqim	10			0,1	0,1	
	Etak qismi			0.5	0,1	0,1	
4	Ort bo'lak astari						
	Yelka qirqim	10			0,1	0,1	
	Etak qismi			0.5	0,1	0,1	
	Yon qirqim	10			0,1	0,1	
	Etak qismi						

5	Nimcha						
	Tepa qirqim	10			0,1	0,1	
	Yon qirqimi	10			0,1	0,1	
	Pastki qismi	0.5			0,1	0,1	
6	Baska						
	Yuqori qismi	10			0,1	0,1	
	Pastki qismi	15			0,1	0,1	
	Yon tomonlari	10			0,1	0,1	

Andazalar spetsifikatsiyasi

2.6.-jadval

№	Qismlar nomi	Qismlar soni		Belgilanishi
		bichimda	andazada	
	1	2	3	4
1	Old bo'lak	1	1	001
2	Old yon bo'lak	1	2	002
3	Ort bo'lak	1	2	003
4	Ort yon bo'lak	1	2	004
5	Old bo'lak adip	1	1	005
6	Ort bo'lak adip	1	2	006
7	Nimcha old bo'lak	1	2	007
8	Nimcha ort bo'lak	1	2	008
9	Baska	1	1	009

**Detallarda tanda ipining nominal yo'nalishi va andozalarda ulardan yo'l
qo'yilgan og'ishlar.**

2.7.-jadval

№	Detal nomlanishi	Tanda ipi yo'nalishi	Tanda ipining yo'l qo'yilgan og'ishi, %
1	2	3	4
001	Old bo'lak	Old o'rta qismga par	3%
002	Old yon bo'lak	Old yon o'rta qismiga parallel	3%
003	Ort bo'lak	Ort o'rta qismga par	3%
004	Ort yon bo'lak	Ort yon o'rta qismiga parallel	3%
005	Old bo'lak adip	Old o'rta qismga par	0%
006	Ort bo'lak adip	Old o'rta qismga par	0%
007	Nimcha old bo'lak	Etakka perpendikulyar	1%
008	Nimcha ort bo'lak	Etakka perpendikulyar	1%
009	Baska	O'rta qismga parallel	0%

Andazalarda nazorat kertiklar qo'yish joylarining ro'yhati

2.8.-jadval

№	Nomlanishi	Kertiklar joylashgan o'rni
1	2	3
1	Old bo'lak	Bel chizig'i va o'miz
2	Old yon bo'lak	Bel nuqtasi va o'miz
3	Ort bo'lak	O'miz chuqurligi
4	Ort yon bo'lak	Ort bel nuqtasi
5	Old bo'lak adip	Adip qiyamasi
6	Ort bo'lak astari	Adip qiyamasi
7	Nimcha old bo'lak	Yeng o'mizini o'rta qismi
8	Nimcha ort bo'lak	Bo'yin o'mizi va bel chuqurligi
9	Baska	O'miz chuqurligi

2.3.6.1 Yangi modellar andazalarini tayyorlash tamoyillari tavsifi

Detallar andazalarining chizmasi bu ularning konstruksiyasini, shakli va o'lchamlarini, ishlov berish hamda bichishdagi texnik shartlarini ifodalaydigan texnik hujjatdir. Andazalarning chizmasi buyumni tuzuvchi barcha detallarga, konstruktorlik hujjatlarning yagona sistemasi talablariga muvofiq tayyorlanadi.

Kiyim detallari andazalarining chizmasi konstruksiyaning model xususiyatlari kiritilgan texnik chizma asosida tavsiya qilingan materiallar xususiyatlari haqidagi va ularga texnologik ishlov berish usullari to'g'risidagi ma'lumotlar yordamida tuziladi. Andazalar chizmasi quyidagi ketma-ketlikda bajariladi:

- konstruksiya chizmasi batafsil tekshiriladi;
- chizmaga gazlamaning kirishuvchanligi bilan bog'liq aniqliklar kiritiladi;
- detallar chizmasining nusxalari boshqa qog'ozga tushiriladi;
- asosiy detallar andazalarining ishchi chizmasi quriladi;
- hosila va yordamchi andazalarning ishchi chizmalari quriladi;
- ishlab chiqarishda foydalanishga mo'ljallangan andazalar chizmasidan andazalar shablonlari tayyorlanadi.

Qayd etilgan ketma-ketlik quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Konstruksiya chizmasini tekshirish maqsadida old va orqa bo'laklar, qirqma yon bo'lak, yenglar, ostki yoqa singari asosiy detallarning nusxasi maxsus moslama yordamida chizmadan qalin qog'ozga ko'chiriladi va qirqib olinadi. Qirqib olingan andazalar shablonida ko'krak, bel, bo'ksa chiziqlari, old o'tar chizig'i, vitachkalar, cho'ntaklar chizig'i va boshqa asosiy konstruktiv chiziqlar belgilanadi.

Andazalar shabloni yordamida konstruksiya chizmasida biriktiriladigan qirqimlarning tengligi, konstruktiv qirqimlar tutashmalari, nazorat kertiklar joylarining detallarda o'zaro mosligi tekshiriladi.

2.4 Kolleksiya reklama loyihasini ishlab chiqish.

2.4.1 Nom tanlash (BRAND-NAME)

Moda industriya sohasida reklama muhim o'rin egallaydi. Reklama va biron narsa haqida ommaga ma'lumot berish, savdo yetakchisidir. Har bir iste'molchi o'z shaxsiy ehtiyojlariga ega, betakror shaxsdir. Iste'molchining umumlashtirilgan tavsiyasi yaratish uchun birinchi qadam, uning muayyan garuh, yoshlar, ayollar, ziyolilar, ishchilar va hokazolarga mansubliklari bo'lishi mumkin. Hozirgi kunda har bir iste'molchi o'z uslubiga ega bo'lishni ho'xlaydi.

Ushbu liboslar to'plami uchun brand-name ishlab chiqishda yuqoridagi fikrlarga tayanildi. Brand-name "MMM" deb nomlandi. Shior "Ayollarni go'zallikka yetaklaydi".

2.4.2. Kolleksiya reklama loyihasini ishlab chiqish.

Ko'p ming yillar davomida reklama insoniyatning doimiy hamroxi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda.

"Reklama" atamasi lotincha "reclamare" so'zidan olingan bo'lib, "qattiq qichqirmoq", "habar qilmoq" ma'nolarini bildiradi.

Hozirgi kunda reklamaning juda ko'p turlari mavjud. Yuklangan vazifasiga ko'ra, reklama turlicha klassifikatsiyalanadi. Masalan, tarqatish vositalariga ko'ra, quyidagi turlarga bo'linadi.

- tashqi reklama;
- transportdagi reklama;
- matbuotdagi reklama;
- TV dagi reklama;
- radio orqali reklama;
- internetdagi reklama;
- manzilli marketing;
- ko'rgazmalar;
- assotsiativ reklama.

Tashqi reklama: bilbordlar, elektron tablolar, e'lonlar, ko'cha jihozlari, vetrina va fasadlarning sifatli bezagi, reklamali ko'rsatkichlar va afisha qurilmalari va hokazo. Bundan tashqari buklet, flayer va bannerlarda tasvirlangan reklamalar mavjud bo'lib, ushbu to'plam uchun banner usuli tanlandi va kolleksiya reklama loyihasi ishlab chiqildi.

EKOLOGIK QISM

3. Ekologik qism

Kostyum dizaynerlari ijodida ham ekologik muammolar inobatga olinib boshlandi. Dastlab 1970 yy. oxirida – 1980 yy. boshida “ekologik uslub” paydo bo’lishi bilan ekologik mavzu ro’y berdi: modaga tabiiy toladan, asosan zig’ir va ip matolar, tabiiy ranglar, qo’lda ishlangan bezaklar va boshqalar. Ekologik muammolarni kiyim dizayniga ta’siri uni loyihalash prinsiplarida katta o’zgarishlarni ro’y berishiga olib keldi. [4]

Ishlab chiqarishni ekologizatsiyalash yo’nalishi texnologik jarayon bilan bog’liq muammolarni yechadi: tabiiy boylikni tejamlash, bezarar va chiqindisiz texnologiyalarni qo’llash, buyumlar bilan qayta foydalanish va boshqalar.

Qo’l kashtasi yordamida ayollar oqshom liboslari to’plami dizayn loyihasini ishlab chiqishda texnologik jarayon bilan bog’liq muammolar quyidagicha yechildi:

- birinchidan, tashqi muhitda o’zlashtirilmaydigan sun’iy sintetik materiallardan foydalanmaslik, chunki ularni ishlab chiqilishi tashqi muhitni iflos qiladi va insonni sog’ligiga putur etkazadi (masalan, statik elektrni to’playdi); sintetik matoni o’rniga ana’naviy tabiiy sidirg’a adras matosidan foydalanildi;

- ikkinchidan, ishlab chiqarishni ekologizatsiyalash – bu faqat resurslardan iste’mol qilishni kamaytirishgina, yangi bezarar va chiqindisiz texnologiyalarni yaratishgina emas, balki an’anaviy texnologiyalarni tiklanishidir. Bu muammoni echish yo’llaridan biri an’anaviy o’simlikbo’yoqlarini qo’llashdir. Ushbu liboslar to’plamini yaratishda foydalanilgan kashta bezaklari tabiiy bo’yoqlar bilan rang berilgan.

“Alternativ ekonomika”ni tarafdorlari fikriga ko’ra, xom ashyoni minimal talafotini ta’minlaydigan mukammal texnologiyaga asoslanishi zarur va aholini kichkina guruhining talablarini qondirish uchun buyumlarni kam seriyali ishlab chiqarish, ular resurslarni katta tejamligiga olib keladi, chunki faqat kerakli mahsulot ishlanadi. Bir xil buyumlarni ommabop seriyali ishlab chiqarishdan ancha tejimli bo’lib chiqadi.

Yuqoridagi fikrga tayanib liboslar to'plami kam seriyada ishlab chiqarishga mo'ljallab yaratildi.

“Inson ekologiya”siga yo'naltirilgan dizaynning oliy maqsadi – shaxsning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, inson uchun qulay va shinam muhit yaratishdan iborat. Ekologik yo'naltirilgan dizayn mahsulotlarga ekologik estetikaga tayanadigan quyidagi talablarni qo'yadi: ular yoqimli, nafis, chiroyli, insonni ruhiyatiga yaxshi ta'sir etadigan holda, unga osoyishtalik, tabiiylik va erkinlik his qilishiga imkon berishi lozim; ijobiy hissiyot tug'dirishi zarur.

Yaratilgan liboslar to'plamida yuqorida ko'rsatilgan talablar bajarilgan.

Xulosa

Liboslar dizayni kafedrası tomonidan “Qo‘l kashtachilikdan foydalanib o‘rta yoshdagi ayollar oqshom libosini ishlab chiqish” mavzusi berilgan. Bu mavzu bo‘yicha kurs loyihasida zamonaviy moda yo‘nalishi va bozor talabiga javob beradigan 5 ta model tanlandi. Tanlangan model iste‘molchi talablariga qanchalik mos kelishi o‘rganib chiqildi.

O‘zbekiston sharoitini o‘rganib chiqilgan holda, komplekt uchun material tanlandi va material hususiyatlari o‘rganib chiqildi. “M.Muller va o‘g‘li” uslubida yaratilgan metodika bo‘yicha konstruksiya qurish usuli tanlandi. Ishchi hujjatlar tuzilib yangi model andozalari tayyorlandi, andozalar modellashtirilgan holda tanda ipi va chok haqqilari berildi.

Bitiruv malaka ishi ayollar oqshom libosini texnologik jarayoni loyihalandi. Modelni tikish uchun buyum material hususiyatlarini hisobga olgan holda qo‘l kashtachiligidan foydalanish mumkinligi ko‘rib chiqilgan.

O‘zbek milliy amaliy san‘at bo‘lgan yog‘och o‘ymakorlikni chuqur o‘rganib, unda foydalanilgan naqshlarni milliy san‘atining bir turi bo‘lgan qo‘l kashtachiligida tikildi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. I.Karimov “2012 yil yakunlari va 2013 yil ustuvor yo‘nalishlari” ma’ruzasi.
2. Карцер “Рисунок и Живопись”- М.; 2005
3. “Академический рисунок в изобразительном искусстве” –М.; 2008
4. Abdurasilov S., Tolipov N. “Rang tasvir”- T.; Bilim nashriyoti O‘MTXTM 2005
5. Boymetov B. , Abdurasilov S. “Chizmatasvir”-T.;TDPU 2004
6. S.Jumayev “Sozlar sadosi”. – T.: “Jahon” axborot agentligi bosmaxonasi, 2001.
7. Козлова Т.В. “Художественное проектирование костюма” М ЛП 1988 г.
8. Черемных А. И. “Основы художественного проектирования одежды” .М 1986 г.
9. Бердник Г.О. “Дизайн костюма” Ростов Феникс 2000 г.
10. Бердник Г.О. “Основы художественного проектирования одежды и эскизной графики костюма”. Ростов. Феникс. 2001 г.
11. X.X.Kamilova, N.K.Hamrayeva “Tikuv buyumlarini konstruksiyalash”. - T.: Cho’lpon nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2011.
12. G.K.Xasanbayeva “Libos dizayni” ma’ruza matni. - T.: TTYeSI bosmaxonasi, 2011.
13. Е.А.Янчевская “Ayollar ustki kiymini konstruksiyalash”. - T.: “O’qituvchi”, 1997.
14. M.Sh.Jabborova “Tikuvchilik texnologiyasi”. – T.: “O’zbekiston”, 1994.
15. “Единая методика конструирования одежды сзв (ЕМКО СЭВ)”, Том – 2. – М.: 1988.
16. Ф.М.Пармон “Композиция костюма”. - М.: Легпромбытиздат, 1985.

17. О.И.Крымова «Проектирование швейных изделий». – Т.: «Укитувчи», 1985.
18. J.Ochilov “Gazlamashunoslik”. – Т.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
19. BAZAAR 2012 – 2013 (Журнал).
20. Ателье 2013 (Журнал).
21. COLESIONE 2013 (Журнал).
22. www.google.uz
23. www.ziyo.net
24. www.moda.uz
25. www.modnaya.ru
26. fashion_tv.com

ILOVA



Дизайнер ўз услубига содик қолиб, каштачиликнинг энг нозик усулларида жило берилган асарларини такдим этди. Дастлаб либослар ва уларда қўлланилган безаклар бир-бирига ўхшашдек туюлади. Аммо тўпламни синчковлик билан кузатсангиз, ҳар бир либос мустақил асар даражасида эканини сезасиз. Тўплам учун умумий бўлган безак ва шакллар эса ижодий ғояни тўқис акс эттириш йўлидаги бир восита.

МАДИНА ҚОСИМБОВА

